

XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA MA'RIFATPARVARLIK

Xafizova Vazira Usmonovna

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi mudiri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19152712>

Annotatsiya. Mazkur tezis XX asr boshlarida Buxoro amirligida shakllangan ma'rifatparvarlik harakati va jadidchilik faoliyatini tahlil etadi. Unda jadid maktablarining tashkil topishi, «Tarbiyai atfol» jamiyati faoliyati hamda milliy matbuotning vujudga kelishi yoritilgan. Sadriddin Ayniy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi ziyolilarning ta'lim islohoti va jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, konservativ kuchlarning qarshiligi va siyosiy jarayonlarning murakkabligi ko'rsatilgan. Tadqiqotda jadidchilik merosi yoshlar ongida bag'rikenglik, milliy g'oya va tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Bu harakat milliy uyg'onishning muhim bosqichi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Buxoro amirligi, usuli jadid, Tarbiyai atfol, milliy matbuot, islohot, bag'rikenglik, milliy ong, siyosiy jarayonlar.

ENLIGHTENMENT (JADID) MOVEMENT IN BUKHARA AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. This thesis analyzes the enlightenment movement and Jadid reform activities in the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century. It examines the establishment of Jadid schools, the role of the "Tarbiyai atfol" society, and the emergence of national press. The contributions of intellectuals such as Sadriddin Ayni, Fitrat, and Fayzulla Khojaev in educational reform and modernization are highlighted. The study also addresses resistance from conservative forces and the complexity of political processes. Jadidism is evaluated as an important factor in shaping tolerance, national identity, and historical consciousness among youth. It is interpreted as a significant stage of national awakening.

Keywords: Jadidism, enlightenment, Bukhara Emirate, Jadid schools, Tarbiyai atfol society, National press, reforms, tolerance, National consciousness, political processes.

XX asr boshlarida Buxoro ma'rifatparvarlari bilan bog'liq bo'lgan merosini keng o'rganish va targ'ib etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lganligini ta'kidlab, respublikamizdagi barcha ta'lim musassalar talabalari ongiga bag'rikenglik g'oyalarini singdirish hozirgi davr yoshlarini milliy g'oya talablari ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlarning mohiyatini ham tolerantlik (bag'rikenglik) tamoyilini rivojlantirishda milliy ma'naviy an'alarimizning ahamiyatiga alohida e'tibor berib, globallashuv davrida davlatimiz ichki va tashqi hayotida o'zaro hurmat va o'zaro hamkorlik tamoyillariga asoslanganligini ko'rsatib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan BMT minbaridan Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini kabul qilish taklifi ilgari surildi. "Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan".[1]

Ablulvohid Burxonov, Mukammil Burxonov, Sadridin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaulla Xo'jayev, Akmaljon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Musa Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi.

Keyinchalik uning faoliyatida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi.

Buxoro amirligida jadid maktablari, o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, necha-necha asrlar davomida Buxoro musulmon olamining ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat, ilm-fan o'chog'i bo'lib kelgani tarixdan ma'lum.

Buxoro amirligi hududida dastlabki «usuli savtiya» – usuli jadid maktablarini ochilishi Sadridin Ayniy va Mirza Abdulvohid Munzim nomlari bilan bog'liq. Sadridin Ayniy ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda tatar muallimlari ochgan usuli jadid maktablari mavjud edi.

Ayniy va Munzim ushbu tatar maktablaridagi o'qitish usullarini o'rganadilar va o'z maktablariga tatbiq qiladilar. Maktabdorlar Mirza Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy, Ahmadjon Hamdiy Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar muallimi Xolid Burnashev maktabiga boradilar, ta'lim qoidalaridan tortib, darsxona tartibigacha, o'qitiladigan ilmlardan tortib, kitob va darsliklarigacha tanishadilar, ma'lumotlar oladilar.

Buxoroning ilg'or kuchlarini birlashtirish uchun jamiyat kerak edi. 1909 yilda Buxoro jadidlari: Ahmadjon Hamdiy, Abdulvohid Munzim, Hamidxo'ja Mehriy, Sadridin Ayniy, Xoja Rofe', Mukammal Burhon «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») nomli yashirin jamiyat tuzdilar.

Bu jamiyatning sa'y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma'muriyatiga ilg'or yoshlardan kiritish va shu yo'l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg'or o'zgarishlar yasash ko'zda tutilgan edi. Jamiyatning birlamchi masalasi Buxoro o'quv muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan bo'lsa-da, oliy o'quv yurti hisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmi, malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning uchun «Tarbiyai atfol» jamiyati iqtidorli yoshlarni Orenburg, Ufa, Qozon, Bog'chasaroy, Istanbul kabi shaharlarga o'qishga yuborishni birinchi vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun mablag' kerak edi. Xalq istiqboli, ma'rifati uchun jon kuydiruvchi mulkdorlar ham, iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari ham topildi. Jamiyatnig katta sa'y-harakati natijasida uning dastlabki yiliyoq bir guruh yoshlar Istanbulga o'qishga yuborildi. Sadridin Ayniy bu haqda quyidagilarni yozadi: «Ikimoli tahsil uchun Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li (1878 – 1968), uning birodarlari Atoxo'ja (1894 – 1938), Mazhar Mahzum Burhon Mahzum o'g'li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istambulga safar qildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste'dodlisi va eng fozili edi» [2].

Buxoro jadidlarining, «Tarbiyai atfol» jamiyatining o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlaridan yana biri o'z matbuot organiga ega bo'lishi edi. Turkiston jadidlari «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» kabi qator gazetalar nashr qildilar. Ular Buxoro mutafakkirlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan edi. Jamiyatning sa'y-harakati bilan 1912 yil 11 martdan tojik tilida «Buxoroyi sharif», 1912 yil 14 iyuldan o'zbek tilida «Turon» nomli gazeta nashr qilina boshlandi. Bu ikki gazeta nafaqat Buxoroda, balki butun Turkiston o'lkasida ham katta e'tibor qozondi. Maktab va madrasalar islohoti, «usuli savtiya» maktablarini targ'ib-tashviq qiluvchi o'nlab maqolalar e'lon qilindi.

1912 yil sentyabrdan «Turon» gazetasi muharririyati Istanbul dorulfununini bitirib kelgan G'iyos mahzum Husayniy qo'liga o'tdi. Gazeta endi haftada 3 marta muntazam chiqib turdi. Bu ikki gazeta ma'rifat ahliga kuchli ta'sir ko'rsatdi, ilm-ma'rifat yo'lini mash'al kabi yoritdi.

Buxoroning hamma guzarlarida yangi maktablar qayta ochila boshladi, bunga asosiy sabab shu ikki gazeta bo'ldi. Ularning mushtariylari kun sayin butun Turkiston o'lkasida ham ko'payib borgan. Bu hol mustamlakachi ma'murlarga ma'qul emas edi, gazetalarni yopish uchun esa sabab topa olmas edi. Bunday vaziyatlarda ular mahalliy hukumat nomidan ish ko'rar edilar. 1913-yil 2-yanvarda Buxorodagi rus elchixonasidan uchinchi darajali amaldor Petrov imzosi bilan shunday farmoyish keldi: «Buxoro amiri janobi oliyning xohishlari bilan ushbu kundan e'tiboran «Buxoroyi sharif» va «Turon» gazetalari nashri to'xtatildi [3]. Ammo shunga qaramasdan, jadid mutafakkirlari ilm-ma'rifat yo'lida qanchalik sa'y-harakat qilmasinlar, ularning faoliyati Buxoro sharoitida shunchalik qattiq qarshiliklarga uchradi, hatto ular aziz hayotlarini xavf ostiga qo'yib islohot ishlarini amalga oshirdilar. Jadidchilik harakatining ashaddiy dushmanlaridan bo'lmish Burhoniddin Buxoro qozikaloni mansabini egallagach, dastlabki harakati «usuli jadid» maktablarini yopish bo'ldi. «Usuli jadid» maktablarining birinchi bor 1909 yilda yopilishida va bu maktablarning bunyodkorlari Sadriddin Ayniy va Mirzo Abdulvohid Munzimning Buxorodan quvg'in qilinishida ham shu Burhoniddin bosh-qosh bo'lgan edi.

1914-yil 4-iyulda Burhoniddin qozikalon jadid maktablarini badnom qiluvchi va bu maktablarni tezda yopishga qaratilgan quyidagi mazmunda Amir Olimxonga ariza yozadi: «Amir marhum (amir Abdulahad ko'zda tutilmoqda) davrlarida ulamoning fatvolari bilan usuli jadid maktabining harom va bid'atligi sobit bo'lib, janobi oliyning amrlari bilan yopilgan edi. Bir necha vaqtdan beri yana muftid jadidlar bosh ko'tarib, shaharning har tarafida maktablar ochib, xalqning bolalarini buzib, fitna va fasod qo'zg'atib yuribdurlar. Agar janobi oliyning amrlari bilan ushbu maktablar tezlik bilan bog'lanmasa, mullabachchalar bu bid'atni barham bermoq uchun o'zlari qo'zg'alishlari aniqdir. U holda mamlakatda fitna va fasodlar ko'payib, davlati oliyga zarar yetishi ehtimoldir» [4].

1917-yil Fevral inqilobidan keyin Buxoro amirligi o'z hukmronligini saqlab qolish uchun birmuncha islohotga rozilik bildirgandek harakat qildi. Shu munosabat bilan 1917-yil 7-aprel kuni «Arki oliy»da amirning oliy farmoni e'lon qilindi. Farmoni oliyga bag'ishlangan katta yig'inda Samarqanddan buxoroliklarni muborakbod qilib, Turkiston jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ma'ruza qildi. Ertasi kuni Buxoro jadidchilik harakati namoyandalari islohotchilar qamoqqa olindilar. S.Ayniy va Mulla Nazrullo Lutfiy 75 tayoq jazosiga hukm qilindilar. Mulla Nazrullo Lutfiy ushbu jazo tufayli halok bo'ldi. Bu mash'um voqea munosabati bilan hamdardlik izhor qilgan yoru birodarlarga S.Ayniy «Vaqt» gazetasi orqali minnatdorchilik bildirgan edi: «Buxoroning ma'lum hodisalari vaqtida Buxoro hukumati tarafidin 75 tayoq bilan urilib, o'lim holinda Kogon hastaxonasiga keltirilub o'runlashtirilishum munosabati ila har tarafdin tanish-bilish, do'st-oshnolarim maktub ila iyodat qildilar. Bu muhtaram zodlarning qayg'usina xususiy javob yozishga iqtidorim erishmaganligi uchun samimiy tashakkurlarimni arz qilurg'a mazkur gazetangizning vositasi bo'luvin o'tinaman. Ehtirom ila mudarris S.Ayniy. Yangi Buxoro, hastaxona» [5].

Jadidchilik harakati Buxoroda shiddat bilan rivojlandi, hatto uning siyosiy bosqichga ko'tarilishi Turkiston jadidlariga nisbatan oldinroq kechdi.

Bu jarayonda ayniqsa, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa ma‘rifatparvarlar katta faoliyat ko‘rsatdilar. Ularning bu harakatlari o‘sha davr yoshlari bag‘rikenglik g‘oyalarini rivojlanishiga katta yordam berdi.

Jadid maktablarining Xorazm xonligi bilan Buxoro amirligida shakllanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng ko‘lamda tarqalishiga yuqori tabaqa – amir, qushbegi, qozikalon va mutaassib ulamolar keskin qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsalar, Xiva xonligida, aksincha, bu masalada xon boshchiligidagi yuqori tabaqa farmonbardor bo‘ldi, pastki tabaqa, hatto mahalliy muallimlar ancha sustlik qildi. Shuning natijasi o‘laroq jadidchilik, jadid maktablari keng quloch yoza olmadi. Jadid maktabdorlari, usuli jadid pedagoglari, muallimlari xalq orasidan yetishib chiqmadi, xonlik, asosan, Qozon tatarlaridan, Turkiyadan, Bog‘chasaroydan darsliklar, turli o‘quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish masalasi bilan mashg‘ul bo‘ldi. Bu yo‘l bilan xonlik maorifini tubdan isloh qilish mumkin emas edi.

Xiva xonligidagi mavjud ahvolga «Tarjimon» gazetasi ham taassuf bildirdi: «Bog‘chasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaya yarashmayur, kelishmayur esa xivalidan muallimlar yetishdirmali va Xivada tab’ o‘linajoq alifbolari vujudga keltirmali. Bunda hech bir kimsa zarar ko‘rmaz. Toshkand bo‘yla bir chora bo‘ldi» [6].

Jadidchilik harakatining ilk bosqichlarida tashqaridan usuli jadid muallimlari jalb qilish, chetda nashr qilingan darslik va qo‘llanmalardan foydalanish hollari bo‘ldi. Ammo bu hol uzoq davom etmadi. Chunki jadid mutafakkirlari bu yo‘l bilan usuli jadid maktablarini – millat maorifini rivojlantirib bo‘lmasligini yaxshi bilar edilar. Shuning uchun ham Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li va Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi pedagoglar boshchiligidagi usuli jadid maktablari uchun zamonaviy muallimlar tayyorlash, davr talablariga javob bera oladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish hamda nashr etish kabi kompleks pedagogik ishlarni olib bordilar.

Milliy taraqqiyparvarlar g‘oyasining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri tarixiy ongni rivojlantirish, tarixdan saboq chiqarish bo‘lgan. Abdurauf Fitrat 1917 yilda bu haqda shunday yozgan edi: «Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganaturlig‘on ilmdir». [7]

Shunday qilib, O‘zbekiston xalqlarining ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixida (XIX asr oxiri XX asr boshlari) yoshlarda bag‘rikenglik muammolarining o‘ziga xos tarzda yoritilishi amaliy ahamiyatga molik meros bo‘lib undan mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoni hamda rivojlantirilishi uchun ushbu meros eng muhim ma‘naviy-g‘oyaviy manbalardan biri sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi// “Xalq so‘zi”, 2017 yil 20 sentyabr.
2. Ayniy Sadridin. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. 8 tomlik, 1-tom. – T.: 1963. – B.233.
3. Sharipov R., Muhiddinova F. O‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta’limotlari tarixi. – T.: “TDYUI”, 2004. – B. 75.
4. Ayniy Sadridin. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar. 8 tomlik, 1-tom. – T.: 1963. – 252-253 betlar.

5. “Vaqt” gazetasi, 1917 yil 10 may
6. “Tarjimon” 1913 yil. 278-son
7. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. V jild. – T.: “Ma’naviyat”, 2010. – B. 36.